



---

**OILA PSIXOLOGIYASIDA ERTA AJRIMLARNING OLDINI OLIH  
YO'LLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11480612>

**G'aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna**

*Psixologiya kafedrasida dotsenti*

**Rasuljonova Gulzoda Shuhrat qizi**

*Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich 22.22- guruh talabasi.*

*Farg'ona davlat universiteti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada jamiyatning asosiy bo'g'ini sanalgan oilaning yuz beradigan nizolar, munosabatlardagi tanazzul hamda erta ajrimlarning sabablari va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr va mulahazalar nazariy taxlil etilgan.

**KALIT SO'ZLAR**

Oila psixologiyasi, nikoh, bola psixikasi, oila kodeksi, orqaga qaytish, ajrim.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье теоретически анализируются главное звено общества - семья, которая считается основным звеном общества, причины конфликтов, упадка отношений, ранних разводов и их устранение.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Семейная психология, брак, детская психология, семейный кодекс, возвращение, развод.

**ANNOTATION**

This article theoretically analyzes the main link of society - the family, which is considered the main link of society, the causes of conflicts, the decline of relationships, early divorces and their elimination.

**KEY WORDS**

Family psychology, marriage, child psychology, family code, return, divorce.

**KIRISH**

Asrlar davomida oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida barqarorligini ta'minlash jamiyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanalgan. Binobarin, xalq muayyan oilalardan tashkil topar ekan, uning barqarorligi, oilalarning tinch-totuvligi mamlakatning rivoji va istiqbolini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.



Globalizatsiya, fan-texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda qonuniy nikoh asosidagi oilani saqlab qolish hammamizning hattoki har birimizning vazifamizdir. Ha, bu oilalarda bo'ladigani kabi meniki yoki seniki singari sansalor bo'ladigan shunchaki maishiy masala emas, bu tom ma'nodagi jamiyat va davlatning ertasi uchun, avlodlar davomiyligi uchun favqulodda muhim hodisadir. Oila faqat adabiy jarayonda adiblarning yoziqlarida, musavvirning polotnosida, kinoaktyorlarning ekran va sahnadagi rollarida emas, balki amalda muqaddas va daxlsiz bo'lishi shart. Ha, O'zbekistonimiz uchun oila muqaddas bo'lib qolaveradi. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Ammo shunga qaramasdam oilaviy ajrimlar soni ko'payib bormoqda.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirda O'zbekistonda oilalar barqarorligini ta'minlash, er-xotin o'rtasidagi ajrashishlar sonini kamaytirish, oilani saqlab qolish imkonini beradigan ko'plab tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy choralar belgilangan va bu boradagi huquqiy asoslar yaratilgan. Taassuflar bo'lsinki, shunga qaramasdan, er-xotin o'rtasidagi ajrashishlar soni ularning o'sib borish dinamikasini ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, yirik shaharlarda yuqori ekani hech birimizga sir emas.

Bugungi kunda oilalarni moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, yosh oilalarga ko'maklashish davlat va nodavlat yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Ayrim davlat organlari oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, ularga davlat tomonidan moddiy yordam berishni ta'minlash bilan shug'ullanmoqda. Oilalarni qo'llab-quvvatlashda, oilaviy nizolarni hal etishga ko'maklashishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalarning roli kattadir. Ammo bugungi jamiyatimizda u ajrimlar soniga jiddiy to'siq bo'la olmay qoldi. Ko'pincha oilalar, er-xotinlar yoki oilaning boshqa a'zolari o'z muammolarini yashirish, ularni oshkor qilmaslikka harakat qilishadi yoxud davlat organlariga, mahalla kommittetiga nisbatan ishonch yo'qligi sababli ularga murojaat qilishdan tiyilishadi. Buning natijasida kichik muammolarning kattalashib ketishiga, va oqibatda, oilaviy ziddiyatlar va nizolarning vujudga kelishiga hamda yakunda er-xotin ajrashishiga sabab bo'ladi.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar ushbu muammolarning yechimini topish, ularni bartaraf etish borasida bir qancha yechimlar mavjud.

Er-xotin o'rtasidagi ajrashishlarga asosan turli kelishmovchiliklar, er-xotinning bir-birini tushunmasligi yoki boshqa ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy omillar sabab bo'ladi. Tan tolsh kerak, oilani saqlab qolish imkoni bo'lgan hollarda ham qonunchilikning mukammal emasligi, tamonlarning murosasizligi kabi nosamarali uslublar ham er-xotinning ajrashishlariga sabab bo'ladi.



Bugungi kunda oilaviy majburiyatlarni bajarish muammosi oilaviy munosabatlardagi eng asosiy masalalardan biri sanaladi. Er-xotinning oilaviy majburiyatlarni bajarmasligi oqibatida ajrashishlar soni ortib bormoqda. Bunda amaldagi OKda oilaviy majburiyatlarni bajarmaganlik uchun maxsus javobgarlik choralarning belgilanmaganligi ham sabab bo'lmog'da deyishimiz mumkin. Shu bois OKda oilaviy majburiyatlarni bajarmaganlik huquqiy javobgarlikni vujudga keltirishi haqidagi norma kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Shundan kelib chiqib, ehtimol bu borada ma'muriy javobgarlik choralari qo'llashga doir huquqiy normalarni ham shakllantirish lozim, degan fikrdamiz ham.

Oilaviy nizolarga yana bir sabab sifatida biz yosh oilalar barqarorligini saqlashda uchinchi shaxslarning salbiy ma'nodagi aralashishlari deb hisoblashimiz mumkin. Garchi Oila kodeksida oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmasligi nazarda tutilgan bo'lsada (3-modda), hozirda yosh oilalarga qaynonalar va boshqa qarindoshlarning o'zboshimchalik bilan aralashuvi oqibatida ajrashishlar soni ortib bormoqda. Ushbu masalalarning yechimi sifatida OKga oila to'g'risidagi qonun hujjatlari va ularning qo'llanilishi oilani va uning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashni, oila a'zolarining oilani saqlash va bolalar tarbiyasi uchun o'zaro javobgarligini, voyaga yetmagan bolalarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishni ta'minlashga qaratilishiga oid aniq normani nazarda tutish zarur. Ko'p hollarda ajrashishlarga shaxsning oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarini suiiste'mol qilishlari ham sabab bo'ladi. Er-xotinning bir-biriga nisbatan oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlarni suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'yilmasligiga oid qoida esa amaldagi kodeksda o'z ifodasini topmaganligiga ham guvoh bo'ldik. Bunda er-xotinning, shu jumladan boshqa oila a'zolarining oila munosabatlaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlarida qonun hujjatlariga rioya etishlari, birgalikda turmush qurish qoidalarini, axloq-odob tamoyillarini hurmat qilishlari, vijdonan va halol harakat qilishlariga oid normani Oila kodeksiga kiritish maqsadga muvofiq.

Yana bir holat olimlar fikricha, orqaga ketish deb nomlanadi. Bu shunday holatki, unga ko'ra, er va xotinni yaxshi, iliq munosabatlar bog'lab turgan, lekin aynan muhabbat birdan sovib, er-xotin bir-birini ko'rsa g'ashi keladigan, gaplari yoqmaydigan, nizokash bo'lib qoladi. Bunday voqealar hayotda tez-tez uchraydi. Sababi - birdan yongan olov, ya'ni, muhabbat, ma'lum vaqt o'tgach o'chishi, so'nib qolishi mumkin. Shu kabi holatlar va undan boshqa sabablar tufayli oila ajrimlarining sodir bo'lishi barcha zamonlar va davrlarda ham kuzatilgan. Faqat nikohning barbod bo'lishi shakllari va sabablarida har bir davrda o'ziga xos asoslar bo'lgan deyish mumkin. Masalan, Sharq mamlakatlarida qadimdan nikohning barbod bo'lishi eng kam uchraydi, deb hisoblab kelingan. Chunki oila institutining poydevori mustahkam bo'lishiga ajdodlarimiz qayg'urganlar.



Yetti pushtini surishtirish, sovchilik instituti orqali bir-biriga mos keladigan yoshlarning taqdirini bog'lash, hattoki, uzoq qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, ya'ni, oldindan bir-birlarini bilgan odamlarning o'zaro kelishuvi, mehr va muhabbat rishtalari orqali oila qurish o'zbekchilikka xos odatlar sifatida qadrlangan va ta'kidlab o'tilgan nikoh motivlarining barchasida oqilona fikr yuritish, yoshlar va ular ota-onalarining yetti o'lchab bir kesishil oilaning mustahkam bo'lishi uchun zamin hisoblangan.

Eski manbalarda nikoh ajrimiga sabab bo'lgan omillar sifatida avvalo, er yoki xotinda to'ydan keyin aniqlangan nasliy xastaliklar, ko'p holatlarda erkak kishining, ayrim holatlarda ayolning boshqa inson bilan til topishib ketishi, boobro' va mansabdor shaxsning kelinchakni yoqtirib qolishi va zo'rlik bilan eski oilani buzishga majbur qilishlar, farzandsizlik, ayolning bepushtligi sabab erkakning xotinni taloq qilishi, iqtisodiy nochor yosh oilaning o'z ro'zg'orini yurita olmaganligidan ayolning boshqa odamga turmushga chiqishga majbur bo'lib qolishi kabi sabablar qayd etilgan.

Muhimi shundaki, nikohning barbod bo'lishidagi tashabbus asosan erkak kishining qo'lida bo'lgan. Agar u xohlasagina nikoh barbod bo'lgan. Agar mabodo ayol tashabbus ko'rsatsa, u qattiq jazolangan, jamoatchilik uni qoralagan, hattoki, tosh bo'ron qilinganligi to'g'risida qadimgi tarixdan, eski kinofilmlardan ma'lum. Qadimgi Xitoyda nikoh ajrimiga olib keladigan sabablarga erning ota-onasi ra'yiga qaramaslik, ularga kelinning gap qaytarishi, betgachoparlik, bepushtlik, mahmadonalik, bedavo xastalik, rashk kabilar kirgan. Lekin, yuqoridagi holatlar bo'lsa-yu, ayol erining ota-onasiga aza tutayotgan bo'lsa yoki u chin yetim bo'lsa, eri uni baribir uydan haydab yubora olmagan.

Muqaddas dinimizda ham oilaning buzilishiga olib keluvchi taloq masalasi aynan erkakka berilgan, aslida buning zamirida ham oilarning buzilishining oldini olish maqsadi ilgari surilgan.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oiladagi ijobiy psixologik muhit turmush o'rtoqlar o'rtasidagi iliq va ishonchli munosabatlar, oila a'zolari o'zaro munosabatda bo'lgan va bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydigan ijobiy hissiy muhit bilan tavsiflanishini anglab olishimiz qiyin emas. Oilada va har bir oila a'zolarida o'zaro munosabatlar o'zaro bir-biriga bo'lgan hurmat va tenglikka asoslanadi. Qisqa qilib aytganda, turli yo'llar bilan bo'lsa-da, er-xotin o'rtasidagi ajrashishlar sonini kamaytirish, oilalarning bir butunligi va barqarorligini saqlab qolish borasidagi mexanizmlarni kuchaytirish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni kuchaytirish nafaqat, zamon talabi, ayni vaqtda siz-u bizning asosiy vazifamizdir. Bunday oiladagi mojarolar nafaqat er-hotin o'rtasidagi nizoga, oilaviy kelishmovchiliklarga sabab bo'libgina qolmasdan, oiladagi psixologik muhitning



buzilishiga, bolaning ruhiy salohiyatiga va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi har qanday ijobiy psixologik muhit bolaning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Ota-onalar o'zaro murosa qilgan holda va oilada bir-birini tushinib, qo'llab-quvvatlasa rag'batlantirilsa, adolatli bo'lgan holda mehrinob ota yoki ona bo'lsa bola ham o'zini xavfsiz va ishonchli his qiladi. Oilada bo'layotgan har qanday ziddiyatli mojaro va kelishmovchiliklar oilaning har bir kattayu-kichik a'zosiga salbiy ta'sirini o'tkazadi.

## ADABIYOTLAR

1. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // V.M.Karimova. - T.: "Fan va texnologiya", 2008 - 170 b
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz -T.: "O'zbekiston", 2017, 329-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -1. Toshkent-„O'zbekiston“-2019
4. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari.T.: Shams, 2002. – 25 b. 11.
5. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Oilaviy hayotni o'rganishga oid psixologik testlar. T.: Shams, 2002. – 58 b.
6. Ganieva, K., & Tojimamatov, J. (2020). THE ATTITUDE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF MENTAL HEALTH OF PERSON. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 87-89).
7. Ахматхоновна, Ф. Х. (2022). ШАХС ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(5), 89-95.
8. Akhmadkhonovna, K. G., Rustamovna, A. A., & Saydolimovna, Z. D. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).
9. G'Aniyeva, X., & Tojimamatov, J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. Science and innovation, 1(B7), 517-523.
10. Axmatxonovna, G. A. X., & Iqboljon o'g'li, T. J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. O'ZBEKISTONDA



FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12),  
600-606.